
ABDURAXMON QODIROV HOKIM YORDAMCHISI TAVSIYASIGA ASOSAN 16.9 MLN SO‘M IMTIYOZLI KREDIT OLIB, TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YDI



Qo‘shitepa tumanining Solijonobod mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Abduraxmon Qodirov bir necha yillar mavsumiy ishlarda ishlab kelgan. U mahalla hokim yordamchisi Sherzodbek Raxmonovga murojaat qilib, xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagini bildirgan. Hokim yordamchisi bu tashabbusni maqullab, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi asosida 16.9 mln so‘m imtiyozli kredit hisobiga metal mahsulotlaridan buyum yasash uchun asbob-uskunalar olishida ko‘maklashdi.

Hozirda fuqaroning bandligi ta‘minlandi. Qolaversa 2 ta ishchi o‘rni ham yaratildi. Metal mahsulotlaridan buyum yasashni yo‘lga qo‘ygan Qodirovlar oilasi endilikda hududdagi tadbirkorlarning biriga aylanib, oila byudjetiga daromad keltira boshladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-11-10 08:04:50